


Tirkasheva Durdona Jonizok qizi

*Alfraganus universiteti. Pedagogika psixologiya yo'nalishida
3-kurs talabasi. "New Way" Xalqaro psixologiya markazi
bitiruvchisi (amaliy psixologiya) O'zbekiston psixologlar assotsiyasi
a'zosi*



**YOSHLARDA SHAXSIY IDENTIFIKATSIYA: O'ZLIKNI
ANGLASH JARAYONLARI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR E'TUVCHI
OMILLAR**

Tirkasheva Durdona Jonizok qizi

*Alfraganus unveriteti, 3-bosqich pedagogika fakulteti,
pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabasi.*

Annotatsiya: "Yoshlarda shaxsiy identifikatsiya: o'zlikni anglash jarayonlari va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar" loyihasi o'smirlik va yoshlik davrida o'zlikni anglash jarayonini o'rghanishga bag'ishlangan. Ushbu tadqiqot yoshlarning shaxsiy identifikatsiya jarayoniga ta'sir qiluvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni aniqlashga qaratilgan. Loyiha doirasida oilaviy muhit, ijtimoiy doira, media ta'siri hamda yoshlarning shaxsiy qadriyatlar va maqsadlari kabi omillarni tahlil qilish rejalashtirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi yoshlarga o'zligini aniqlash va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishda yordam beruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu loyiha yoshlar orasida ruhiy barqarorlik va o'z-o'zini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning hayotiy yo'llarini aniqroq anglashlariga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: Shaxsiy identifikatsiya, o'zlikni anglash, o'smirlik psixologiyasi, yoshlar rivojlanishi, ijtimoiy ta'sir, madaniy omillar, oila muhitining ta'siri, ruhiy barqarorlik, shaxsiy qadriyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish.

Annotatsiya: Проект «Личная идентификация у молодежи: процессы самопознания и факторы, влияющие на развитие» посвящен изучению процесса самопознания в подростковом и юношеском возрасте. Это исследование направлено на выявление социальных, психологических и культурных факторов, влияющих на процесс личной идентификации молодых людей. В рамках проекта планируется анализ факторов, таких как семейная среда, социальное окружение, влияние медиа, а также личные ценности и цели молодежи. Основной целью исследования является разработка практических рекомендаций, помогающих молодым людям в самоопределении и укреплении уверенности в себе. Этот проект поддерживает психическую стабильность и личностное развитие молодежи, а также помогает им более четко осознавать свой жизненный путь.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ключевые слова: Личностная идентификация, самопознание, психология подростков, развитие молодежи, социальное влияние, культурные факторы, влияние семейной среды, психологическая устойчивость, личные ценности, саморазвитие.

Abstract: The project “Personal Identity in Youth: Processes of Self-Understanding and Influencing Factors in Development” is dedicated to exploring the processes of self-identification during adolescence and youth. This research aims to identify the social, psychological, and cultural factors that affect the development of personal identity among young people. The project plans to analyze factors such as family environment, social circles, media influence, and the personal values and goals of youth. The primary goal of the research is to develop practical recommendations to help young people better understand themselves and enhance their self-confidence. This project supports mental stability and self-development among youth, helping them gain a clearer understanding of their life paths.

Keywords: Personal identification, self-awareness, adolescent psychology, youth development, social influence, cultural factors, family environment impact, mental stability, personal values, self-improvement.

KIRISH

Yoshlar o‘zlikni anglash va shaxsiy identifikatsiyani rivojlantirish jarayonida hayotiy qarashlarini shakllantiradi, shaxsiy qadriyatlari va maqsadlarini belgilaydi. Ushbu davrda insonlar o‘zining kimligini aniqlashga intiladi, o‘z qadr-qimmatini tushunishga va ijtimoiy o‘rnini topishga harakat qiladi. O’smirlik va yoshlik davri shaxsiyat shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, bu bosqichda shaxsiy identifikatsiya orqali inson o‘z-o‘zini anglashni boshlaydi.

Shaxsiy identifikatsiya jarayoni — bu yoshlar o‘zlari haqida bilgan ma’lumotlarni, qadriylarni va qarashlarni birlashtirish orqali o‘z shaxsiyatini shakllantirish jarayoni. Bu jarayon yoshlarga ijtimoiy, oilaviy, madaniy va boshqa tashqi omillar orqali ham ta’sir etadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot yoshlarning o‘zlikni anglashiga ta’sir qiluvchi omillarni chuqurroq o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ularning ichki dunyosi va tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishga harakat qiladi.

Yoshlarning shaxsiy identifikatsiya jarayoni ko‘plab murakkab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayon ularga o‘z-o‘zini anglash va o‘z shaxsiyatini shakllantirishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Ko‘p hollarda yoshlar ijtimoiy bosim, oilaviy muhit va madaniy stereotiplar ta’sirida o‘z haqiqiy ehtiyojlari va qadriyatlarni anglashdan uzoqlashadi. Shu bilan birga, jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlar, media ta’siri va zamonaviy texnologiyalar ham yoshlarda o‘zini anglashni murakkablashtiradi.

Natijada, yoshlar o‘z shaxsiyatini to‘g‘ri anglashda muammolarga duch kelib, ichki ziddiyatlar va o‘ziga bo‘lgan ishonchszlikka yo‘liqishi mumkin. Bu holatlar kelajakda ular uchun ruhiy barqarorlikka tahdid solishi, shaxsiy maqsadlarni aniq belgilashda va

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

hayotiy yo‘lni tanlashda noaniqlikka olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqotning dolzarbli shundaki, u yoshlarning shaxsiy identifikasiya jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni chuqurroq o‘rganib, ularga ushbu jarayonda yordam beruvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — yoshlarning shaxsiy identifikasiya va o‘zlikni anglash jarayoniga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni aniqlash hamda ularga o‘z-o‘zini anglash va ishonchni shakllantirishda yordam beruvchi tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Vazifalar:

1. Yoshlar o‘rtasida shaxsiy identifikasiya va o‘zlikni anglash jarayonining ahamiyatini tahlil qilish.
2. Shaxsiy identifikatsiyaga ta’sir etuvchi asosiy omillarni — oilaviy muhit, ijtimoiy doira, media ta’siri va madaniy stereotiplarni o‘rganish.
3. Yoshlar o‘zlikni anglash jarayonida duch keladigan psixologik qiyinchiliklarni aniqlash va ularning sabablarini tushuntirish.
4. Yoshlarning o‘z-o‘zini anglashga va shaxsiy ishonchni shakllantirishga yordam beradigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
5. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda o‘smirlilik va yoshlik davrida ruhiy barqarorlik va o‘z-o‘zini rivojlantirishga ko‘maklashuvechi strategiyalar taklif etish.

Psixologiya fanida yosh davrlarni tabaqlash bo‘yicha bir qator psixologlarning mustaqil yo‘nalishlari mavjud. Ular psixika taraqqiyotining ontogenezda rivojlanishini turli davrlarga ajratadilar va bu davrlarning o‘ziga xos, boshqa davrlardan farq qiluvchi xususiyatlarni ko‘rsatib beradilar. Jumladan, «amerikalik psixolog E.Erikson inson umrining o‘ziga xos betakror xususiyatlarga molik sakkizta davrga ajratadi.

Birinchi davr - go‘dakligida tashki dunyoga ongsiz “ishonch” tuyg‘usi vujudga keladi.

Ikkinci davr ilk bolalik davri bo‘lib, bu davrda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usi shakllanadi yoki aksincha, ularning teskarisi uyat va shubha hissi paydo bo‘ladi.

Uchinchi davr o‘yin yoshi deb ataladi va unga 7-5 yoshli bolalar kiradi.

To‘rtinchi davr maktab yoshi boladagi asosiy o‘zgarishlar: ko‘zlangan maqsadga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik bilan ajralib turadi.

Beshinchi davr o‘spirinlik davri bo‘lib, uning betakror xislati, o‘ziga xosligi, boshqa odamlardan keskin farqlanishi bilan xarakterlanadi.

Oltinchi davr yoshlik boshqa jinsga psixologik intim, yaqinlashuv qobiliyati va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi.

Yettinchi davr yetuklik davrida hayotiy faoliyatning barcha sohalarida mahsuldarlik tuyg‘usi uzluksiz hamroh bo‘ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajardi.

Sakkizinchi davr, ya’ni karlik inson sifatida o‘z burchini uddalay olganidan, turmushning tez umrovligidan, qanoatlanish tuyg‘ulari bilan xarakterlanadi.

I.Shpranger “O‘spirinlik davri psixologiyasi” nomli asarida bu davrga 13-19 yoshli qizlarni, 14-22 yoshli yigitlarni kiritishni tavsiya qiladi. Uningcha, bu yosh davrda yuz

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

beradigan asosiy o'zgarishlar: a) shaxsiy "men"ni kashf qilish: b) refleksiyaning o'sishi: v) o'zining individualligini anglash va shaxsiy xususiyatlarini e'tirof etish: g) hayotiy ezgu rejalarining paydo bo'lishi d) uz shaxsiy turmushini ongli ravishda ko'rishga intilish va hokazolardir. 14-17 yoshlarda vujudga keladigan inqiroz o'smirlarda uzlariiga kattalarning bolalarcha munosabati doirasidan qutilish tuyg'usi paydo bo'lishidan iboratdir. 17-21 yoshlilarning yana bir xususiyati ularda tengqurlaridan "ajralish" inqirozi va tanholik istagining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu holat tarixiy shart-sharoitlardan kelib chiqadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'smirlik insonlarni balog'atga yetish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farq qilanadi. O'smirda ro'y beradigan biologic o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11 (12)-15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy yetilish amalga oshadi.

Bolaning bo'yi 11-12 yoshida 6-7 sm, hatto 10 sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. O'smir 13-14 yoshga to'lganda har ikkala jins o'rtasida bo'yning o'sishi qariyb bararlashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda esa o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. Shundan keyin to'umrining oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar.

O'smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o'qituvchilardan, 4 foizini maktab vrachlaridan va qolgan yashirin jihatlari, holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'ch-kuydan, o'rtoqlari va dugonalarodan eshitib bilib oladilar. Kutilmagan holatlar va ma'lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi. Goho o'smirlar orasida axloqan tubanlashuv hollari ro'y berishi mumkin. Ularni bunday qiliqlardan, noplak guruh va to'dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy hayotda yaramas odatlarni keltirib chiqaruvchi anchagina manbalar bor: birinchidan, kino zallari va telvidenyada o'smirlarga to'g'ri kelmaydigan filmlarga ro'xsat qilinishi; ikkinchidan jamoat joylarida va ko'cha-kuya kattalarning nojoiz qiliqlar ko'rsatishlari; uchunchidan, ta'limda biologic o'sish to'g'risida yetarlicha bilimlar berilmasligi; to'rtinchidan, vrachlarning bu sohada keng ko'lamda ish olib bormasligi; beshinchidan, ota-onalarda fiziologik va psixologik bilimlar yetishmasligi; oltinchidan, o'smir bolalar va qizlarga mo'ljallangan materiallarning kamligi va hakazolar.

O'smirlik davrida g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan psixologik o'zgarishlar ro'y beradi, bolaning muayyan ijtimoiy turmush sharoitida keying kamol topishi uchun zarur ta'lim-tarbiya ta'sirida barqaror, mustahkam iz qoldiruvchi ijobiy xislatlar namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshdagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzu-istiklari bilan harakat qilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan princhip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai Nazari asosida tashkil qila boshlaydi.

Psixologiya faniga doir nazariy adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda inson bosib o'tadigan yosh davrlarini mukammal o'rganilganligini ko'rish mumkin. Ilk yoshdan bola

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kattalar, ayniqsa yaqin kishilarining qo`llab-quvvatlashi, mehr-muhabbati, erkalashini his qilib o`sadi, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni suyib-erkalab, quchib, boshini silab, yoqimli gaplar orqali hissiy yaqinlik qilinsa, ular bundan quvonib, xursand bo`ladilar va erkalayotgan shaxsga nisbatan talpinadilar. Shuningdek, bolalar o`z tengdoshlari yoki notanish shaxslar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlarida nizoga duch kelganda, ayniqsa tengdoshlaridan «jabrlanganda», «yengila boshlaganida», ota-onasidan va atrofidagi yaqinlaridan dalda, hissiy qo`llab-quvvatlash kutadi va bu borada ularga murojaat qiladi, agar o`z vaqtida hissiy daldani olsa, o`zini erkin, tetik tutadi va quvonib yuradi. O`smirlilik davrida esa aksincha, o`smir endi «yosh bola» emas, endi u «katta odam», katta odam esa mustaqil bo`lishi, o`z muammolarini o`zi hal qilishi kerak. Bu davrda kattalar yordamiga murojaat qilish, tengdoshlari tomonidan qoralanadi va buni o`smirning o`zi ham xohlamaydi, endi o`smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko`rsatiladigan iltifot, erkalashlar g`alati tuyuladi. Endi ular kattalarning erkalashlarini, «arzimagan narsalar» uchun bildiriladigan olqishlarni «yoqtirmaydilar», o`z muammolarini o`zлari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko`chada, bog`chada, mакtabda yuz bergen voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib ota-onasidan yordam so`ragan bo`lsa, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildirmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning «ishlariga» aralashmasliklarini xohlaydi, bularning barchasi o`smirlarda bevosita kuzatiladigan emotSIONAL(xissiy) avtonomiya alomatlariDir.

O`z-o`zini idora etish, o`zaro bir-biriga bog'liq faktlar zanjiri ko'rinishida aks etadi:


O`zini-o`zini anglash


O`ziga-o`zi baho berish


O`zini-o`zi tarbiyalash

O`smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan, shu paytgacha ularga noma'lum bo`lgan va kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, hissiy kechinmalar, qarama-qarshi jinsga bolgan o`ziga xos qiziqishlar, ma'lum mazmundagi kitoblar, filmlar, disklar, uyali aloqa vositalaridagi manbalarga, kattalarning gaplariga bo`lgan qiziqishlarning paydo bo`lishi tabiiy-fiziologik zarurat tufayli yuzaga keladigan normal holatdir. Ammo bunga loqaydlik bilan befarq munosabatda bo`lish ham mumkin emas, shunday xolatlar ham ma'lumki, ayrim vaziyatlarda jinsiy mayllar(axloqsiz ishlarga taqlid qilish, yoshga to'g'ri kelmaydigan jinsiy zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi adabiyotlar va kinofilmlar bilan tanishish, —ommaviy madaniyatiga ruju qo'yish kabilalar illatlar) ma`naviy tubanlik, behayolik, iffatsizlik kabi salbiy kechinmalarga olib keladi. O`smir qanday bo`lmasisin

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

«parda» ortida nima borligini bilishga urinib ko‘radi, chunki —ta`qiqlangan meval mazali boladi degan ibora bejiz aytilmagan. —Bir kun, vaqt kelib, o‘zлari hammasini bilib olishar, degan fikr mutloqo noto‘g‘ridir, o‘smirlarni vogelikdan ajratib qo‘yib bo‘lmaydi, hayot qaynab turibdi, o‘smirlar unga zo‘r qiziqish bilan qaramoqdalar, ular o‘zлari uchun mavhum sanalgan, kattalar orasidagi sirli(intim) munosabatlarni ham tushunishni istaydilar. Bu yerda o‘smir kundalik hayotining to‘g‘ri tashkil etilishi, ya‘ni qat‘iy kun tartibi, uyqu, dam olish va ovqatlanish me`yori, jismoniy tarbiya va sport bilan doim shug‘ullanish yordam beradi. O‘smirlar diqqat-e`tiborini, qiziqarli, jozibali va eng asosiysi, ijtimoiy foydali bo‘lgan faoliyatga yo‘naltirish muhimdir. Jinsiy tarbiya tizimida o‘smirlarga qarama-qarshi jins vakillari orasidagi o‘zaro munosabatlarga doir murakkab masalalarni tushuntirish lozim. Agar psixologlar, oqituvchi-murabbiylar o‘z vaqtida yordam bermasalar, ayni paytda o‘smirlar o‘zлari uchun tushunarsiz bo‘lgan va ularni hayajonli tarzda o‘ziga jalb etgan hodisalarga o‘zлari javob qidirishga majbur bo‘ladilar.

XULOSA

O‘smirlilik davri — bu shaxsiyat rivojlanishining murakkab, ammo juda muhim bosqichi. Ushbu davrda biologik o‘zgarishlar, shuningdek, psixologik va ijtimoiy omillar yoshlarning o‘zligini anglash jarayoniga ta’sir etadi. O‘smirlar, o‘zlariga o‘xshashlar bilan o‘zaro munosabatlar o‘rnatish, shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish va o‘z hayotiy maqsadlarini belgilashda yangi qiyinchiliklarga duch keladilar.

O‘smirlilik yillari — bu o‘z-o‘zini kashf etish, identifikatsiya va individullashish jarayonidir. Yoshlar ijtimoiy bosim, oilaviy muhit, madaniy stereotiplar va zamonaviy texnologiyalar kabi bir qancha omillardan ta’sirlanadilar. Bunda ular ko‘pincha o‘z haqiqiy ehtiyojlari va qadriyatlarini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar. O‘smirlar o‘zlarini va o‘z joylarini ijtimoiy muhitda aniqlashda murakkabliklar va ichki ziddiyatlar bilan yuzma-yuz kelishlari mumkin.

Yoshlar o‘zlikni anglash jarayonida ruhiy barqarorlikni saqlab qolish, shaxsiy ishonchni shakllantirish va o‘ziga bo‘lgan hurmatni oshirish zarur. Buning uchun, ta’lim muassasalarida o‘smirlar uchun yetarli psixologik yordam va o‘zaro muhokamalar o‘tkazish, ularga mo‘ljallangan jinsiy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish, o‘smirlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish muhimdir. Yoshlarni psixologik muammolarini hal qilishda ko‘maklashadigan faoliyatlar, ta’lim, sport, san‘at va ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etishlariga rag‘batlantirish, ijtimoiy doiralarini kengaytirish va mustahkamlashda yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, o‘smirlar o‘z qadr-qimmatini tushunishda va shaxsiyatini shakllantirishda ko‘proq ijobiy tajribalar va rol modellarga muhtoj. Ota-onalar va o‘qituvchilar, o‘smirlar uchun ta’lim berish va ko‘maklashishda ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ularning qo’llab-quvvatlashi, hissiy yaqinligi va ijtimoiy yo‘nalishlari o‘smirlar uchun muhimdir.

O‘smirlilik davrida, yoshlar o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy ishonchni shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni inobatga olishlari kerak:

1. O‘zlikni anglash: Yoshlar o‘z qadriyatlari va maqsadlarini aniqlash uchun vaqt ajratishlari lozim. O‘z-o‘zini refleksiya qilish va o‘zgarishlarni qabul qilish muhimdir.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

2. Ijtimoiy doira: Ijtimoiy muhitda o'zini hurmat qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan do'stlar bilan o'rtoqlashish tavsiya etiladi.

3. Ruhiy salomatlik: Psixologik yordam va maslahat olish imkoniyatlarini izlash, stressni boshqarish va hissiy yondashuvlarni rivojlantirish zarur.

4. O'qituvchilar va ota-onalar bilan aloqalar: O'smirlar o'zlarini erkin his qilishlari va kattalarga o'z muammolari haqida ochiq gapirishlari uchun ishonchli muhit yaratilishi kerak**IO**

5. Amaliy faoliyatlar: Yoshlar ijtimoiy foydali faoliyatlar bilan shug'ullanish, o'z qiziqishlari va istaklarini rivojlantirish orqali o'zlarini kashf etishlari muhimdir.

Umuman olganda, o'smirlik davri shaxsiyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'z-o'zini anglash va shaxsiy ishonchlarini shakllantirish jarayoni uchun kerakli qo'llab-quvvatlash va resurslarni taqdim etish zarur. O'smirlar o'zligini anglash va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini o'rganish jarayonida, ularga yordam beruvchi strategiyalarni ishlab chiqish hayotiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mehri Norbosheva "Bolalar psixologiyasi" (ma'ruza matnlari) Toshkent 2002.
2. Z.T.Nishanova, G.K.Alimova, A.G'.Turg'unboeva, M.X.Asranboeva "Bolalar psixologiyasi vapsixo diagnostikasi" Toshkent 2017.
3. G'.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog'inov, F.A.Akramova, G. Ssolihova, G. Niyozmetova "Oila psixologiyasi" Toshkent 2008.
4. E. G'oziyev "Psixologiya" Toshkent 1994.

